



## PRESS-RELIZ

2022-yil 3-avgust

### Davlat dasturi ijrosi yuzasidan brifing to‘g‘risida

**2022-yil 3-avgust kuni Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida “NKMK” AJ Matbuot markazi boshlig‘i A.Jo‘rayev ishtirokida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 2022-yil I yarim yillik ijrosi yuzasidan brifing o‘tkazildi.**

Davlat dasturi doirasida “NKMK” AJda 7 ta bo‘lim va 42 ta banddan iborat chora-tadbirlar rejası qabul qilinib, uni amalga oshirishga 44,4 mlrd so‘m va 486 mln dollar sarflanishi ko‘zda tutilgan.

O‘tgan olti oylikda ishlar tizimli tashkil etish hisobiga chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilgan bandlarga doir 31 mlrd so‘mga yaqin va qariyb 252 mln dollarlik ishlar bajarildi.

Jumladan, birichidan, Investitsiya dasturi doirasida 2022 yilda yangi loyihalarni amalga oshirish hisobiga 2 095 ta yangi ish o‘rni yaratish va unga yosh mutaxassislarni qabul qilish nazarda tutilgan. Olti oyda 1 510 ta yangi ish o‘rni yaratilib, unga oliygoh va kollej bitiruvchilari, “Ishga marhamat!” monomarkazida kasbga tayyorlangan yoshlар ishga qabul qilindi.

Ikkinchidan, 5-gidrometallurgiya zavodi flotatsiya uchastkasida sun’iy intellekt tizim joriy etilishiga 13 mlrd 895 mln so‘mdan ortiq mablag‘ sarflandi.

Uchinchidan, kombinatdagi yuqori va quyi bo‘g‘in rahbar-xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga 5 mlrd 385 mln so‘mdan ortiq mablag‘ sarflandi.

To‘rtinchidan, uch ming nafarga yaqin kombinat pensionerlariga Jamoa shartnomasi asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olishga 2 mlrd 951 mln so‘mdan ziyod mablag‘ sarflandi. Shuningdek, pensionerlarga sanatoriylarga 3 mlrd 68 mln so‘mlik imtiyozli yo‘llanmalar, yolg‘iz pensionerlarga 439 mln so‘mlik moddiy yordam ajratildi.

Beshinchidan, chekka va cho‘l hududlarida yashovchi mingdan ortiq kam ta’milangan oila farzandlari va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarga umumiyligi qiymati 1 mlrd 623 mln so‘m bo‘lgan bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlariga imtiyozli yo‘llanmalar ajratildi.

Oltinchidan, koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish chora-tadbirlari uchun 1 mlrd 547 mln so‘mdan ziyod mablag‘ sarflandi.

Yettingidan, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” loyihasi asosida 4 ming nafarga yaqin kombinat ishchi-xodimlarining tarixiy shaharlarga sayohatlarini tashkil etishga 395 mln so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilib, sayohatlar tashkil etildi.

Sakkizinchidan, yoshlarning bo‘sish vaqtini mazmunli tashkil etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlariga 310 mln so‘mga yaqin sarflandi.

To‘qqizinchidan, “Yashil makon” dasturi doirasida kombinat tomonidan 51 ming 500 tup mevali, manzarali daraxt va butasimon ko‘chatlar ekilib, uni amalga oshirishga 232 mln so‘m mablag‘ sarflandi.

Olib borilgan sa’y-harakatlar natijasida, kombinatda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” olti oylik rejasi to‘la-to‘kis 69 foizga bajarildi.

**Murojaat uchun ma'lumotlar:**

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88, 227-74-73

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

[t.me/ngmkofficial](https://t.me/ngmkofficial), [www.fb.com/nkmkofficial](https://www.fb.com/nkmkofficial), [instagram.com/nkmk.official](https://instagram.com/nkmk.official), [www.youtube.com/nkmkofficial](https://www.youtube.com/nkmkofficial)